

**MAHALLIY BYUDJET TAQCHILLIGI**

**Asraqulov Farrux Rustamjon o'g'li**

*Namangan davlat universiteti.*

*Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes kafedra o'qituvchi*

Bugungi kunda barcha davlatlar oldida turgan eng muhim mamsala mamlakat moliyasining oldida turgan dolzarb muammolaridan biri - bu mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, hududlarda davlatning o'z funksiya va vazifalarini to'liq bajarish uchun hududlarning o'z daromadlarini oshirish va moliyaviy mustaqilligini ta'minlash hisoblanadi. Bu borada ko'pgina rivojlangan davlatlar eng samarali mexanizmni ishlab chiqishga muvaffaq bo'lishgan va bu chora-tadbirlarning o'zimizga mos jihatlari mamlakatimiz byudjet tizimida qo'llash mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash muammolarini bir qadar yengillashtirgan bo'lar edi. Albatta, bu jarayonda mamlakatlar soliq va byudjet tizimi o'rtasidagi o'xshashlik muhim xususiyat hisoblanadi. Jumladan, Rivojlangan mamlakatlar mahalliy soliqlar va byudjet tizimi ham Respublikamizdagi ushbu sohalar o'rtasida umumiy o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu o'xshashliklar chet davlatlarda ham hududlarning moliyaviy resurslarning asosiy manbai bo'lib, soliqlar va soliqsiz to'lovlar, byudjet transfertlari (dotatsiya, subvensiya, subsidiya, byudjet ssudasi) tashkil etsada, lekin, har bir davlatda markazlashtirilgan va mahalliy moliyaviy resurslarni shakllantirishning o'ziga xos farqli xususiyatlari ham mavjuddir.

Mahalliy byudjet daromadlarining solikli tushumlarini belgilashda tegishli boshqaruv organlari o'rtasida soliq vakolatlarining taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega. Xalqaro amaliyotda soliq vakolatlarini byudjetlar o'rtasida taqsimlashning 3 ta asosiy modelidan foydalaniladi.

Soliqlarni normativlar bo'yicha taqsimlash O'zbekiston byudjet tizimida ham uchraydi. O'zbekiston Respublikasida yuqorida aytib o'tilgan birinchi va ikkinchi modellar byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish uchun keng qo'llaniladi.

Qonunchilikka muvofiq Qoraqolpog'iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar taqchilligiga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu byudjetlar taqchilligi O'zbekiston Respublikasi respublika byudjeti va yuqori turuvchi mahalliy byudjetlar hisobidan moliyaviy yordamlar (dotatsiya, subvensiya, beriladigan vositalar va byudjet ssudalar) va normativ ajratmalar yordamida qoplanadi. Hozirgi paytda deyarli barcha turdagi soliq turlarining byudjetlararo taqsimlanishi kuzatilmoqda. Umuman olganda byudjetlarga tushadigan barcha soliqlarni ikki guruhga bo'lish mumkin; mahalliy soliqlar va yuqori byudjetdan keladigan ajratmalar.

Har bir mamlakatning soliq qonunchiligiga asosan mahalliy soliqlar hududiy byudjetlarning muayyan turlariga birlashtirilgan. Ushbu soliq stavkalari odatda mahalliy boshqaruv organlari tomonidan belgilanadi. Turli mamlakatlarda bunday soliqlarning soni 20 tadan 100 tagacha, ularning hududiy byudjetlar daromadlaridagi ulushi esa 30 % dan 70 foizgacha bo'lgan ulushni tashkil etadi. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda mahalliy



solliqlar tizimida to'g'ri solliqlar katta ulushni tashkil etadi: jami soliq tushumlarining o'rtacha 70-75 % daromad, foyda va mulkdan olinadigan solliqlar ulushiga to'g'ri keladi. Iste'moldan olinadigan solliqlar 3-4 % ni tashkil etadi, boshqa solliqlar 20-25 % ni tashkil etadi. Chexiyada to'g'ri solliqlar ulushi 85 % ni, egri solliqlar esa 15 % ni tashkil etadi.

To'g'ri solliqlar ichida foyda, daromad hamda turli mulk solliqlari tarkibi ancha farq qiladi: Skandinaviya mamlakatlarida barcha soliq tushumlarining 80-90 % daromad va foyda solig'i hissasiga to'g'ri keladi; Belgiya, Germaniya, Avstriyada bu ko'rsatkich 50 % dan oshmaydi. Boshqa mamlakatlardan esa xududiy organlar byudjetlaridagi soliq tushumlarining asosiy qismi turli shakldagi mulklardan olinadigan solliqlar hisobidan shakllanadi. Jumladan, Irlandiyada yagona mahalliy soliq hisoblanadi; Niderlandiya jami solliqlar daromadlarining 2/3 qismini shu solliqlar tashkil etadi; Yaponiyada 48 % soliq daromadlarini turar joy binolari uchun solliqlar va 21 % ni ko'chmas mulk uchun solliqlar tashkil etadi.

30.12.2023 yildagi “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi [O‘RQ-813](#)-son Qonun kuchga kirdi. U Qonunchilik palatasi tomonidan 2022 yil 22 dekabrda qabul qilingan va Senat tomonidan 2022 yil 27 dekabrda ma’qullangan<sup>31</sup>.

2023 yil uchun yalpi ichki mahsulot 1 068 044 mlrd so‘m darajasida prognoz qilinmoqda. YaIM o‘shish sur‘ati 5,3%ni, iste‘mol narxlarining indeksi o‘tgan yilning dekabriga nisbatan 9,5%ni tashkil etadi.

2023 yil konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulotning 3%i miqdorida belgilandi. 2023 yilda konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 310,68 trln so‘m darajasida prognoz qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi nomidan va O‘zbekiston Respublikasining kafolati ostida jalb qilingan davlat qarzining summasi yalpi ichki mahsulotning yillik prognoz ko‘rsatkichiga nisbatan 60%dan oshmasligi kerak.

2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi nomidan va O‘zbekiston Respublikasining kafolati ostida tashqi qarzlarni jalb qilish bo‘yicha yillik imzolanadigan yangi bitimlarning cheklangan hajmi 4,5 mlrd AQSh dollari, shundan Davlat byudjetini qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan Davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirish uchun - 2 mlrd AQSh dollari, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun - 2,5 mlrd AQSh dollari miqdorida belgilandi.

2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi nomidan chiqariladigan davlat qimmatli qog‘ozlarining cheklangan sof hajmi 17 trln so‘m miqdorida belgilandi. Bunda moliya yili

---

<sup>31</sup>[https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda\\_yangi/davlat\\_byudjeti\\_-\\_2023\\_asosiy\\_kursatkichlar](https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/davlat_byudjeti_-_2023_asosiy_kursatkichlar)



**“FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS  
INTERDISCIPLINARY SCIENCES”  
ITALIA**

davomida chiqariladigan hamda joriy yilda qoplanadigan davlat qimmatli qog‘ozlari cheklangan sof hajmga kiritilmaydi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan qo‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjetining, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimliklari tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar uchun xarajatlar rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantiradi.

2023 yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun ijara to‘lovining quyidagi eng kam stavkalari belgilandi:

/r	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara to‘lovi stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda		
			Toshkent shahri	Nukus viloyat markazi bo‘lgan shaharlar	bosh vaqa aholi punktlari
.	<b>Binolar:</b>				
	turar joy	umumiy maydonning 1000	17	10 500	4
	noturar joy	kv.metri uchun	35 000	20 500	8 300
.	<b>Avtomobil transporti:</b>				
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	1 ta avtotransport vositasi uchun	695 000		
	mikroavtobuslar, avtobuslar va yuk avtomobillari		1 375 000		

**Izoh:** Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi.



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Respublikamiz soliq tizimida mahalliy byudjet moliyaviy resurslarini shakllantirish mexanizmi bilan xorijiy davlatlar, xususan, Amerika, G'arbiy Evropa davlatlari, Yaponiya va shu kabi iqtisodiy rivojlangan davlatlarda umumiy o'xshashliklar hamda o'ziga xos jihatlar mavjud. Ushbu jihatlar federal va mahalliy byudjet daromadlarining soliqlar va soliqsiz to'lovlardan shakllanishi, umumdavlat soliqlardan hududlarga muayyan normativlarda ajratmalar taqdim etilishi hamda byudjetlararo transfertlar shaklidagi subventsiya, subsidiya va dotatsiyalar berilishi byudjet tizimi o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish va shu kabilardan iboratdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Н.Хайдаров. Соликлар ва соликка тортиш масалалари. Укув кулланма. Тошкент: Академия, 2007
2. Nizamiddin Khaydarov. Agricultural Development in Uzbekistan: Agricultural Reforms versus Transboundary Water Issues. Developing Country Studies. ISSN 2224-607X (Paper) ISSN 2225-0565 (Online) Vol.5, No.10, 2015
3. Nizamiddin Khaydarov. INTERNATIONAL EXPERIENCE OF THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN. 2021
4. Хайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иктисод-молия, 2009
5. Низамиддин Хайдаров. Роль таможенного дела в ускорении межгосударственных экономических отношений. Техничко-технологические проблемы сервиса, 2019
6. Низомиддин Гайдаров, Фуркат Шалимов. Жисмоний тарбия ва спорт муассасалари ва уларнинг мамлакат Ижтимоий-иқтисодий ҳаётида тутган урни. Иқтисодиёт ва таълим. 2020/11/26

